



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG‘I

20 25 y. " 11 " mart

№ 01-10/36

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 31-yanvardagi 54-son qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 31-yanvardagi 54-son qarori (keyingi o‘rinlarda – qaror) ijrosini ta‘minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Qarorga muvofiq:

Davlat organlari va tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda - davlat organlari) rasmiy veb-saytlari va portallarini “Yagona darcha” tamoyili asosida o‘z ichiga oluvchi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali yagona platformasi (keyingi o‘rinlarda - Yagona platforma) ishga tushirilganligi hamda “UZINFOCOM” davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator” MChJ Yagona platforma operatori hisoblanishi;

“Davlat organlarining rasmiy veb-saytlari faoliyatini “Yagona darcha” tamoyili asosida Yagona platformada yo‘lga qo‘yish, yuritish, ulardagi axborot dolzarbligi va xavfsizligini ta‘minlash hamda Yagona platformada joylashtiriladigan axborotni davlat organlari tomonidan taqdim etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlanganligi;

Davlat organlarining Yagona platformaga o‘tkaziladigan veb-saytlari faoliyatini texnik qo‘llab-quvvatlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha sarf-xarajatlar belgilangan tartibda tasdiqlangan tariflarga muvofiq davlat organlari bilan Yagona platforma operatori o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida mazkur davlat organlarining budjetdan tashqari mablag‘lari, davlat budjeti mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi;

2025-yil 1-martdan boshlab davlat organlarining rasmiy veb-saytlari faqatgina Yagona platformada yuritilishi;

Davlat organlari rahbarlari davlat organlarining rasmiy veb-saytlari Yagona platformada yuritilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanishi;

Yagona platforma operatori bilan Yagona platformaga o'tkazilgan veb-saytlar faoliyatini texnik qo'llab-quvvatlash hamda ularga xizmat ko'rsatishni, shuningdek, tomonlarning huquq va majburiyatlarini o'z ichiga oluvchi shartnomani tuzish choralarini ko'rish belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar ishlari agentligi Axborot xizmati bosh mutaxassisi Yusupov Doniyorbek Ibraximovich Agentlikning Yagona platformada joylashtirilgan gov.uz/yoshlar rasmiy veb-saytini yuritishga mas'ul etib belgilansin hamda unga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

Yagona platformada joylashtirilgan Agentlik rasmiy veb-saytini axborot xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda yuritish;

rasmiy veb-saytga joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish hamda ularning to'g'riligi va ishonchliligini o'rgangan holda belgilangan tartibda joylashtirib borish;

Davlat organlarining rasmiy veb-saytlari faoliyatini "Yagona darcha" tamoyili asosida O'zbekiston Respublikasi hukumati portalida yo'lga qo'yish, yuritish, ulardagi axborot dolzarbligi va xavfsizligini ta'minlash hamda Hukumat portalida joylashtiriladigan axborotni davlat organlari tomonidan taqdim etish tartibi to'g'risida nizom talablariga muvofiq ishlarni tashkil etib borish.

3. Yoshlar ishlari agentligi:

a) markaziy apparati tarkibiy tuzilmalariga rasmiy veb-saytda joylashtirishi zarur bo'lgan ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligiga javobgar bo'lgan holda belgilangan muddatlarda Yagona platformani yurituvchiga taqdim etib borish;

b) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Sindarov)ga:

Agentlik rasmiy veb-saytini texnik qo'llab-quvvatlash va uning axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar tariflari tasdiqlangandan keyin, "UZINFOCOM" davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator" MChJ bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish yuzasidan Agentlik direktori farmoyishi loyihasini imzoga kiritish;

Yagona platformani yurituvchi haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, ushbu ma'lumotlar o'zgarganda belgilangan shaklda 2 kun muddatda Yagona platforma operatoriga yuborish, uning Yagona platformada ro'yxatdan o'tishiga ko'maklashish hamda Yagona platformada joylashtirilgan Agentlik rasmiy veb-saytini ish holatida bo'lishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktor o'rinbosari F.Ablayarov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Sa'dullayev